



Linguoculturological study of linguistic gradation in work translations

Nilufarkhon MAKHMUDOVA¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 June 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

15 July 2024

Keywords:

anthropocentric paradigm,

ingvopersonologiya,

linguonational studies,

linguocultural studies,

ethnopsycholinguistics.

ABSTRACT

The emergence of the anthropocentric paradigm is associated with the efforts of linguists aimed at a comprehensive study of the essence of language. The problem of interaction between language and culture is studied in such areas as ethnolinguistics, ethnopsycholinguistics, cognitive linguistics, linguonationalistic and linguocultural studies, as well as ingvopersonology. These disciplines are considered close to linguoculturology. One of the most important tasks of a translator is to study prose works of national literature from a linguoculturological point of view. This includes translating works while preserving cultural traditions and national experience, as, for example, in the translation of Abdulla Kadiri's novel "The Days Gone". This classic work of Uzbek literature is important because a high-quality translation can become the basis for a new reader in studying the rich national history and culture of this people.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4-pp329-336>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Asar tarjimalarida lisoniy gradasiyaning linguokulturologik tadqiqi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

antropotsentrik paradigma,

ingvopersonologiya,

lingvomamlakatshunoslik,

lingvokontseptshunoslik,

etnopsixolingvistika.

Antropotsentrik paradigmanning yuzaga kelishi ham tilshunos olimlarning til mohiyatini har tomonlama kengroq o'rganishga bo'lgan sayi-xarakatlari natijasi bilan bog'liqdir. Til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokontseptshunoslik, ingvopersonologiya kabi

¹ Associate Professor, Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Andijan State Institute of Foreign Languages. Andijan, Uzbekistan. E-mail: Mahmudova1076@gmail.com

sohalarda ham o'rganiladi. Shu sababli ushbu sohalarda lingvokulturologiyaga yaqin sohalarda hisoblanadi. O'zbek mumtoz asarlaridan biri bo'lmish Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "Otkan kunlar" asari aynan hozirgi kun milliy adabiyotning nasriy asarlarining linguokulturologik nuqtai nazaridan tadqiq etish, asar tarjimasida halqning urf-odati, kechinmlarini saqlab qolgan holda o'g'irish tarjimomga yuklatilgan vazifalardan biri hisoblanadi, chunki asar tarjimasini jonli ifoda qila olish oqiyotgan kitobxon uchun o'sha millatning milliy kolorit tarixini o'rganishga asos bo'la oladi deb o'ylaymiz.

Лингвокультурологическое изучение лингвистической градации в трудовых переводах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

антропоцентрическая парадигма, лингвонациональные исследования, лингвоконцептуальные исследования, этнопсихоллингвистика.

Возникновение антропоцентрической парадигмы связано с усилиями лингвистов, направленными на комплексное изучение сущности языка. Проблема взаимодействия языка и культуры исследуется в таких областях, как этнолингвистика, этнопсихоллингвистика, когнитивная лингвистика, лингвонационалистические и лингвоконцептуальные исследования, а также лингвоперсонология. Эти дисциплины считаются близкими к лингвокультурологии. Одна из важнейших задач переводчика – изучение прозаических произведений национальной литературы с лингвокультурологической точки зрения. Это включает перевод произведений с сохранением культурных традиций и народного опыта, как, например, при переводе романа Абдуллы Кадыри «Минувшие дни». Это классическое произведение узбекской литературы важно тем, что качественный перевод может стать основой для нового читателя в изучении богатой национальной истории и культуры этого народа.

Antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishi ham tilshunos olimlarning til mohiyatini har tomonlama kengroq o'rganishga bo'lgan sayi-xarakatlari natijasi bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik paradigmasining yuzaga kelishi sabablari va uning mazmun mohiyati haqida tilshunos olimlarning turli qarashlari mavjud bo'lib, ularning har biri [9.147] o'z asosini topgan bo'lsa-da, bu nazariyalarni chuqurroq o'rganib, amaliy jihatdan tadqiq etishni o'zimizga maqsad qilib olgan vaziflarimizdan biri ekanligi, dunyo tilshunosligida matnning antropotsentrik paradigma asosida tahlil qilish va bu tahlil ortida asosan, lingvistik semantika, lingvokognitologiya, [10.398] psixolingvistika, linguokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarga doir izlanishlarda ko'zga tashlanadi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos [4.125] jihatlarning tilda aks etishini o'rganish [4.76] linguokulturologikiyaning asosiy maqsadidir [11.10]. Mazkur sohaning [11.14] ob'ekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani

namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, [11.33] lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi [11.9]. Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Ramz, [5.78] mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy kontseptlari majmui bo'lgan kontseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash linguokulturologikiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. [5.87] Til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, [8.1] lingvokontseptshunoslik, lingvopersono- logiya kabi sohalarida ham o'rganiladi. [8.3] Shu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi [11.9].

Millatlarning etnik kelib chiqishi, urf va udumlariga dahldor predmet nomlari va atamalar tarjimasda transliterasiya qilinishi va qisqacha izoh ilova qilinishi yaxshi samara beradi. [3.8]

Hozirgi linguokulturologiya doirasida madaniy mulk hisoblanmish asarlarning tarjimalari haqida tadqiqatlar o'tkazish udum bo'la boshladi, chunki tarjima orqali ko'plab mamlakatlar orasida madaniyatlararo muloqotni kengayishiga katta yo'l ochib beradi. Biz ham A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini linguokulturologik jihatlarini tarjima orqali ko'rsatib o'tmoqchimiz.

O'zbek mumtoz asarlaridan biri bo'lmish Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "O'tkan kunlar" asari aynan hozirgi kun milliy adabiyotning nasriy asarlarining linguokulturologik nuqtai nazaridan tadqiq etish, asar tarjimasida halqning urf-odati, kechinmlarini saqlab qolgan holda o'girish tarjimomga yuklatilgan vazifalardan biri hisoblanadi, chunki asar tarjimasini jonli ifoda qila olish oqiyotgan kitobhon uchun o'sha millatning milliy kolorit tarixini o'rganishga asos bo'la oladi deb o'ylaymiz. Aynan shu kabi asarlar toifasiga kiruvchi asar tarjimasida lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilmoqchimiz.

Avval birinchi bobida Yusuf bek hoji o'g'li Otabek nomli bobida Otabekning beklar huzurida o'tirgan presedent matnini berishdan boshlasak. Otabek **miqrozi bilan sham' so'xtasini kesib [7.22] tuzatdi [2.196]**. Matndagi linguokulturologik so'zlarimizga izoh berib o'tsak: **miqroz [16.128]**-esk. Sham so'htasini kesadigan kichkina qaychi. Otabek miqroz bilan sham so'htasini kesib tuzatdi. A. Qodiriy, O'tkan kunlar.

Ingliz tilidagi tarjimasini ham keltirib o'tsak: Otabek **leaned forward with a pair of scissors** and intently trimmed the wick of the candle so that it would burn brighter [1.25]. Ingliz tiliga o'girilgan matndagi linguokulturologik so'zlarni ingliz tilidagi izohini berib o'tsak: **intently trimmed [19.2]** – If clothes and other things made of cloth are trimmed, they are decorated, especially around the edges (agar kiyim-kechak va matodan qilingan boshqa narsalar kesilgan bo'lsa, ular, ayniqsa, qirralari kesilgan bo'lsa), **the wick of the candle [19.3]** the piece of string in it which burns when it is lit (yoqilganda yonadigan shamdagi ip bo'lagi) o'zbek tilida asl matnda berilgan ingliz tiliga o'gilrilgan matndagi linguokulturologik so'zlar tog'ri berilgan.

O'zbek millati an'analaridan dastruhon atrofida bo'ladigan matnga e'tiborni qaratsak: Hasanali **dastruxon yozib** qumg'on kirgizdi. Odatiy **takalluflar bilan [19.6]** dasturxon va choyga qaraldi [1.2]. Avval linguokulturologik so'zlarning izohini keltirib o'tishdan boshlasak: **dastruxon yozmoq [13.201]**- [ovqat qo'yiladigan mato; unga

qo'yiladigan taomlar] o'rta yozib, ustiga ovqat qo'yiladigan mahsus mato, ro'zg'or buyumi. Yomonning dastruhonidan yahshining ustuhoni yahshi. Maqol. **Takalluf [14.641]**-suniylik, sohtalik; serhashamlik, jimjimadorlik; iymanish; tortinish] Hurmat – ehtirom va e'zoz-ikrom bilan qilingan muomala, mulozamat. Takalluf bilan qarshi olmoq. Men sizning ko'rpachangizda [7.88] ko'p o'ltirganman, endi menga ortiqcha takallufingizning hojati yo'q. [7.67] A. Qodiriy, O'tkan kunlar. Linguokulturologik so'zlarning izohidan ko'rinib turibdiki, o'zbek halqi madaniyatida odatda dasturxon atrofida shu kabi takalluflar va iltifotlar ko'rsatiladi. Asl matning ingliz tiliga o'girilgan tarjimasiga e'tiborni qaratsak: Hasan Ali entered with a teapot, **spread out the tablecloth**, and offered a **basin so that the men could wash their hands** with the time-honoured exchange of **compliments**, inquire as to one another's health, whether they found themselves too bored, how life treated them, and various other sundry pleasantries, the hosts began the custom of attending to their guest's needs [1.5]. Ingliz tilida berilgan matnda o'zbek tilida berilgan matnda ancha farq borligini ko'rishimiz mumkin. Otabek haqidagi jumla sodda yoyiq gapda berilgan edi, ingliz tilidagi tarjimasida tarjimon qo'shma gap orqali o'giranligini guvohi bo'lamiz, tarjimon kitobhonga tushunarli bo'lishi uchun izohlash usulidan foydalangan ko'rinadi.

Asarning Hasanalining Otabekka nisbatan bo'lgan tuyg'ularini yozuvchi tomonidan bergan sharhida gradasiya hodisasini namoyon bo'lishiga e'tiborni qaratsak: Shuning uchun bo'lsa kerak, Otabekka **ixlos qo'yib unga o'z bolasi kabi qarar**: "O'lganimdan keyin **ruhimga bir kalima qur'on [1.92] o'qisa**, bir vaqtlar Hasanali ota ham bor edi deb yodlasa, [1.120] mega shunisi-"**kifoya**"-deb qaror bergan va hozirdan boshlab, Otabekka bu to'g'rida [1.115] **siporishlar berib**, undan **samimy va'dalar olib yurg'uchi** oq ko'ngil bir qul [1.128] edi [1.159]. Ajratib ko'rsatilgan linguokulturologik so'zlarning o'zbek tilining izohli lug'atidan izohlarini ko'rib chiqamiz.

ruh- [jon, hayot, ko'ngil; arvoh] 1.din. Kishi hayotligida u bilan birga, vafotidan keyin esa tanadan chiqib, abadiy qoladigan ko'zga ko'rinmas narsa, kuch; arvoh. Ruh tanadan chiqqach, tana o'ladi. "Fan va turmush". Hozir unung ruhi, Sidqiyning arvohi Madina orqasidan ergashib ketayotganday ko'rinardi. Mirmuhsin, Chodrali ayol.

kalima keltirmoq-Kalimai shahodatni aynan aytmoq; musulmon bo'lmoq; kalimai shahodatni takrorlab yurmoq. Har qadamda kalmia keltirib, parvardigori, parvardigori olamdan o'z panohida asrashni karra iltijo qildim. H.G'ulom, Mash'al.

qur'on o'qimoq [17.389]-s.t.ayn.tilovat. Kecha oydin, qabriston tip-tinch, uzoqroqdan qur'on tovushi eshitar edi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar

siporish [12.518]-topshiriq, buyurtma; farmoyish, amr; tavsiya, kafolat; 1 esk.kt. Topshiriq, vazifa, o'git, nasihat [Hasanali] 2.e'zoz-ehtirom, iltifot, mulozamat yoki hushomad. Tehsaboy Ashurmirezoning ta'nayu ta'ziridan hali qanchalik yerga kirib ketgan bo'lsa, hozirgi siporishdan ko'kragiga shabada tegib qaddini [shunchalik] rostlab oldi. M.Ismoiliy Farg'ona tong otguncha.

O'zbek tilidagi linguokulturologik so'zlarning izohini ko'rib oldik, endi esa tarjimon tomonidan berilgan matndagi linguokulturologik so'zlarning tarjimasidagi izohini ham ko'rib chiqsak:

In his care for Otabek, he was **the personification of duty and devotion**; one could see that they held each other in high regard by their **comradery and mutual allection**. As solace, Hasan Ali was loyal to Otabek as only a father could be toward his son. He wished only thing in return! [1.23].

personification of duty [20.1] – personifikatsiya – bu odam bo'lmagan odamlarning qiyofasini, harakatlarini va maqsadlarini odatda inson xarakteri uchun ajratilgan til bilan tasvirlaydigan metafora turi.

Devotion [21.3]- diniy ishtiyoq; ibodat yoki shaxsiy topinish; jamoatning muntazam korporativ ibodatidan tashqari diniy mashq yoki amaliyot

Comradery [21.4] – insonlar o'rtasida do'stlik, yaxshi niyat va tanishlik hissi

mutual allection [21.5] – har bir insonning boshqa bir insonga hamdardligi. sinonimlar: o'zaro tushunish; hamdardlik; insonlar o'rtasidagi yaqinlik yoki uyg'unlik munosabati; biriga ta'sir qiladigan narsa shunga mos ravishda boshqasiga ham ta'sir o'tkazadigan.

Asl matndagi **kalima keltirmoq**-kalimai shahodatni takrorlab yurmoqning ingliz tilida tarjimon **personification of duty and devotion** deb o'g'irganini ko'rishimiz mumkin, **ruhimga bir kalima qur'on [7.39] o'qisa**-comradery and mutual allection (qur'on tilovot qilmoq) deb tarjimon tomonidan o'g'irilgan, bizningcha linguokulturologik so'zlarning ma'nosini tarjimon topib qo'llay olgan va o'z maqsadiga erishgan deb o'ylaymiz. Matndagi lisoniy gradasiya hodisasi Hasanalining bek o'g'li Otabekka bo'lgan mehri va muhabbatida namoyon bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin.

Navbatdagi asliy matnga e'tiborni qaratsak: Bek uchun bir necha joylarga **qiz aytdirmak istalangan** bo'lsa ham,-dedi,-avval **taqdir bitmaganlik**, undan keyin **bekning uylanishka bo'lg'an [7.99] qarshiliklaridan bu kungacha to'y qilolmay [7.22] kelamiz [1.159]**. Ulug' xo'jamizning **qa'tiy niyatlari** bu safardan qaytg'ach bekni [1.57] uylantirishdir [1.158].

Bek leksemasi ingliz tili uchun lakunar hisoblanadi, chunki bunday mavqe (lavozim ingliz xalqi madaniyatida mavjud emas.) Shu bois Bek lingvokulturemasi ingliz tilida kalakalash orqali taqdim etilmoqda.

Ingliz tilidagi tarjimasi: Hasan Ali, unsatisfied with his abrupt answer, broke in on Otabeks behalf one again." We wished **to find a girl for the bek**, because, first of all, **he is destined for matrimony**, it is the natural course of things; but **previously he resisted the idea**, so we could not plan a wedding for him until now. The honorable Hajiis **hope** is to arrange a marriage for Otabek upon journeys end" [1.3].

Matrimony [22.5] – shunchaki "**nikoh**" deyishning ajoyib usuli. Qiz va yigitni fотиha qilganda, ularga nikoh o'qitiladi.

to resist the idea [18.6]-biror narsani qattiq rad etmoq ayniqsa, Evropa davlatlarida nikoh masalasida.

Hope [18.3] – biror narsani yaxshilik bilan tugashiga umid qilmoq

Yuqorida ingliz va o'zbek tilida berilgan matnlarning tarjimasiga e'tiborni qaratsak: **qiz aytdirmak istalangan** bo'lsa jumlasiga tarjimon **to find a girl for the bek**, **taqdir bitmaganlik** jumlasiga esa tarjimon- **he is destined for matrimony** jumllarini qo'llagan. Bundan ko'rinib turibdiki, milliy kolorit so'zlarning tarjimasi huddi aslidek o'g'irilgan deb o'ylaymiz. Keltirilgan matn gradasiyasi, **taqdir bitmaganlik** iborasida namoyon bo'lmoqda. Linguokulturologik jihatdan Bekning uylanishi yoki Hasanalining to'y qilish va yangi kelin tushurish maqsadini bildirishida ifodalanyapti, chunki bizning udumlarimizda sovchilar o'g'lini uylash uchun eshikma-eshik yurib, o'g'liga munosibini topib keyin to'yga tayorgarlik qilishni boshlaydi. Qanday go'zal udumlarimiz bor-a!

Keyingi Homidboyning gaplariga quloq solamiz: So'zinigizning to'g'rilig'ida shubha yo'q, -dedi, -ammo **shuni ham qo'shmoq kerakki**, oladig'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham [7.255] xotiniga **muvofiq quttab** bo'lsin. Ingliz tilidagi

tarjimasi quyidagicha: “As far as I am concerned, from a man’s perspective, I don’t think we need **to take into account** whether a man suits a woman’s testes, said Hamid a bit abruptly. “For a woman. Just having a husband is **in itself sufficient**; as many nephew states, if the woman suits the man, that is the only consideration that matters” [1.12]. Keltirilgan matnlarda Hasanaling gaplariga qo’shimcha qilishni hohlagan Hamidni **muvofig quttab bo’lsin jumlasini** Hasanali va Otabekka nisbatan pichingi ya’ni ironiya misolida berilyapti, Otabekka mos zavja topish muommosini linguokulturologik jihatdan **kelin topish** masalasidir deb o’ylaymiz.

Navbatdagi Qutidorning Otabekka aytgan gaplarini tahlilini o’tkazishdan avval linguokulturologik so’zlarning izohli lug’atlarida berilgan izohlarini berib o’tmoqchimiz: **taassufki** [14.624]- [afsuslanish, achinish, kuyunish] Ko’ngilsiz, nomaqbul voqea, hodisa, ahvol sh. k.dan tug’ilgan achinsh; afsus. Taassuf qilmoq. Taasuf bildirmoq. – G’oyat taassuf! – dedi Tal’at afandi, barmoqlarini qovushtirib qirsilatarkan. H. G’ulom, Mash’al

yo’l bermoq [15.277]-o’tib ketish uchun yo’lni bo’shatmoq. Mansur pastak eshikni ochib, Gavharga yo’l berdi. O’.Hoshimov, Qalbingga quloq sol; 2. To’sqin bo’lmaslik, qarshilik qilmaslik; imkon bermoq; yo’l qo’ymoq...ular mehnat ahlini istaganlaricha ishlatib, hamyonlarini yana ham qalpaytirishlari uchun avomning fikrini ochishga yo’l bermaydilar. K.Yashin, Hamza

regret [18.1]-a feeling of sadness about something sad or wrong or about a mistake that you have made, and a wish that it could have been different and better. I left school at 16, but I’ve had a great life and I have no regrets.

cut him off [18.5]- to stop someone speaking by interrupting them or putting the telephone down: *She cut me off in the middle of our conversation.*

Endi esa tahlil qilishni boshlasak: **Taassufki**, eslay olmayman, – dedi, -Amakingiz sizni saroylarga ham olib tushar edilar. [7.96] Qutidor tag’in **nimadir aytmogchi** bo’lg’an edi, [7.165] Akram hoji unga **yo’l bermadi**. [7.89] Ingliz tilidagi matnni ham keltirib o’tsak: “**I regret** not being able to recall your visits, “he said. Qutidor wanted to brush away his embarrassment, but Akram Hajji **cut him off** [1.3]. Qutidorni Otabekka gapirgan gapi juda qisqa bo’lsada, Linguokulturologik jihatdan katta ma’no bor, bek o’g’lini o’zidan kichik bo’lsa ham yana birog’iz so’z aytishga iymanda va Akram hojining ham uni to’htatgani linguokulturologik matnni yana ham kuchaytirgan va aynan gradasiya hodisasini ham shu jumalalarda ko’rishimiz mumkin.

Kumushning honadonida bo’layotgan fотиha to’yi haqida qisqacha to’htalib o’tsak: Qutidor mehmonlarni **ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq- suyuqlari** bilan to’la-tekis [1.55] davom etar edi. To’ybeka ichkari bilan tashqarig’a [1.69] yug’urib **dastruxon yangilar, choy tashir** edi. Xizmat tugalayozg’andan keyin To’ybeka o’zining [1.77] **sovuq qolg’an oshini yemak uchun** Oftob oyimlar yonig’a [1.89] o’lturdi [1.160].

Qutidor **solemnly welcomed them with the open heartedness** that was in his nature. Toibeka moved quickly between the male and female rooms, **serving refreshments, changing the tablecloth**, and **handing tea** to the guests. After she had finished serving Toibeka sat down near Oftob Oyim and **ate her cold pilaf** [1.5].

O’zbek va ingliz tilidagi matnlar va ularning ingliz tilidagi tarjimalariga ham e’tiborni qaratsak: ixlos **va samimiyat bilan kutar-** [7.96] **solemnly welcomed them with the open heartedness, dastruxon yangilar, choy tashir- serving refreshments, changing the tablecloth**, and **handing tea, sovuq qolg’an oshini yemak uchun** [7.115] **ate her cold food.**

Ixlos va samimiyat bilan kutar [7.111] jumlasini ingliz tilidagi tarjimasi **solemnly welcomed them with the open heartedness** (ularni tantali ravishda samimiyat bilan kutib olish). O'zbek tilida berilgan asliy matnda Qutidorni mehmonlarni kutib olish jarayoni haqida berilgan. O'zbek halqining **Fotiha** to'yida na faqat Mirzakarim Qutidor, balki eng kambag'al oila ham qudalar kelishiga shunday tayorgarlik ko'rishadi. Ingliz tilidagi tarjimasiga kelsak tarjimon ham tarjimani huddi o'zi o'sha jarayonda qatnashgandek o'giranligini guvohi bo'lamiz. Matndagi gradatsiya hodisasi esa **ixlos va samimiyat bilan kutar [7.112]** jumlasida namoyon bo'lmoqda. Linguokulturologik jihatlari esa insonni qadrlash va unga bo'lgan hurmat, samimiylida ifodlanib turibdi deb o'ylaymiz.

Odatda o'zbek halqi udumlarida **dastruxon yangilash, choy tashish-** serving refreshments, changing the tablecloth, and **handing tea, sovuq qolg'an oshini yemak uchun [7.124]** -ate her cold food bu kabi iboralar nafaqat to'yda balki, kichkina yosh bola ham eshikdan kirib kelsa, shu kabi mulozamatlarni bizning halqimiz albatta hurmatini joyiga qo'yishida ko'rishimiz mumkin.

Keyingi matnni ham tahlildan o'tkazsak: -Nax siz yosh **mehmonni ko'rmabsiz, [7.128] dunyoga kelmabsiz**-dedi To'ybeka [7.124] o'ng-u ters osh chaynab, bir chiroylilik, bir aqlilik, tag'in o'zi hammadan yuqorida o'lturadir; [7.96] xali yigirma ham bormagandir, **mo'ylabi ham endigina chiqa boshlag'an. [7.114]** Nah bizga kuyov bo'ladigan yigit ekan,-dedi va [7.119] Kumushga qarab kulib qo'ydi [7.115].

mehmonni ko'rmabsiz, dunyoga kelmabsiz odatda o'zbek halqi madaniyatida to'ydan oldin hamma **kuyovni ko'rishni** va u haqida kelinchakka aytib turishni yahshi ko'rishni bildiradi. To'ybekani mehmonlarni kutib olishda yugurib hizmat qilishi esa gradatsiya hodisasi ham aynan shu yerda namoyon bo'lmoqda. O'zbek tilidagi matnlarning linguokulturologiyasi ham matnda ishlatilayotgan so'zlar va so'z birikmalarida ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Qodiriy.O'tkan kunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi.-B.169
2. Abdullah Qodiriy.Bygone days. Library of Congress Control Number: Library of Congress Control. English Editor: Anne McPeak with Sal Robinson .ind Alexandria Laureys
3. E. Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti.-T.,2010
4. O'rozboyev A. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma. al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. Toshkent, "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2019. – 125 b.
5. O'zbek tilining lingvokulturologik tadqiqi muammolari. Xalqaro konferensiya. – 74 b.
6. O'zbek tilining lingvokulturologik tadqiqi muammolari. Xalqaro konferensiya. – 87 b.
7. Qodiriy A. O'tkan kunlar / Roman. –T.: «Yangi asr avlodi», 2012 – 22 b.
8. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Mas'ul muharrir A.O'rozboyev. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. Toshkent, "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2019.
9. Rahmatullayeva N.E. lingvokulturologiya – tilshunoslikning yangi yo'nalishi. Хоразм Маъмун Академияси Ахборотномаси 6/4-2023. -147 b.
10. Ильин И.А. Теория права и государства. Зерцало, Гарант. Москва-2003. 398 с.
11. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 10.

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. С-ҳарфи.-Б.518
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Д-ҳарфи.-Б.201
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т-ҳарфи.-Б.645
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ҳ-ҳарфи.-Б.277
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М-ҳарфи.-Б.258.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Қ-ҳарфи.-Б.389
18. <https://dictionary.cambridge.org>
19. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary>
20. <https://www.grammarly.com/blog/personification>
21. <https://www.merriam-webster.com/dictionary>
22. <https://www.vocabulary.com/dictionary>